



XALQ TABOBATIDAGI DORIVOR O'SIMLIKLARNING INSON SALOMATLIGIDAGI AHAMIYATI

Yoqubova Guldiyora Umedjon qizi

Jumayeva Dilbar Ernazarovna

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: ushbu maqolada dorivor o'simliklar va ularning xususuiyatlari, mamalakatimizda dorivor o'simliklar tarmog'i rivoji uchun olib borilayotgan ishlar xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, farmasevtika, mahalliy dorishunoslik, yalpiz, sebarga, ziravor, urug'chilik, navlarni saqlash.

Аннотация: В этой статье даны мнения о лекарственных растениях и их свойствах, а также о работе, проводимой для развития сети лекарственных растений в нашей стране.

Ключевые слова: лекарственные растения, фармацевтика, отечественная медицина, мята, себарга, пряность, семеноводство, сохранение сортов.

Aannotation: this article gives you ideas about medicinal plants and their properties, about the work carried out in our mamalakat for the development of the network of medicinal plants.

Keywords: medicinal plants, pharmacology, local medicine, mint, sebarga, spice, seeding, variety storage.

Dori-darmonlarni tabiatdan o'rganing,

inson izlayotgan narsani u allaqachon yaratgan

Abu Ali ibn Sino

KIRISH

– Kasal bo'lgan bemor dorixonaga yuguradi va tavsiya etilgan dorini olib ichishga harakat qiladi. O'z vaqtida tabiat ne'matlariga murojaat qilishni unutib qo'yamiz. Misol uchun, O'zbekistonda o'sadigan oddiygina na'mataknning qanchalik



ko‘p xususiyatlari borligidan hatto bexabarlar ham bor. Na’matak inson tanasini shamollashdan xalos etadigan eng samarali dori vositasidir. Tabiiy dorivor o‘simpliklarning ta’siri birdan bilinmasligi mumkin. Shifobaxsh o’tlar inson organizmiga sekin-sekin yordam beradi. Dorivor, shifobaxsh o’tlardan nafaqat kasal bo‘lganda, balki profilaktika sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Mavjud qonunchilikka ko‘ra, 2026 yilgacha mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarishni 3 barobarga oshirish vazifasi belgilangan. Shuningdek, mahalliy mahsulotlar ichki bozorning 80 foizini egallashi ko‘zda tutilgan. Farmatsevtika sanoatida kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli investitsiya loyihalari dasturi tasdiqlangan. Tegishli hujjatlar bilan dori vositalari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar oshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mahalliy korxonalarining GMP sertifikatini olish bilan bog‘liq xarajatlari Farmatsevtika agentligi tomonidan qoplab beriladi. Korxonalarini modernizatsiya qilishni moliyalashtirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi ishtirokida amalga oshiriladi. Dorivor o‘simpliklarni yetishtirishda har 10 hektar plantatsiyalarga suv chiqarish uchun 600 ming so‘mdan subsidiya ajratiladi. Dorivor o‘simpliklar plantatsiyalariga boshqa turdagи qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishga yo‘l qo‘ymaydi.

Dorivor o‘simpliklarni urug‘chiligidan to qayta ishlashgacha bo‘lgan jarayonga mas’uliyatni kuchaytirish davr talabidir. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahalliy dori vositalari uchun xom ashyo asosan O‘zbekistonning o‘zida yetishtiriladi. Aynan O‘zbekistonda yetishtirilayotgan o‘simpliklarning xususiyati boshqa davlatlarda yetishtirilayotgan o‘simpliklardan ancha yuqoriligi o‘z isbotini topgan. Mahalliy florada 4 mingdan ortiq dorivor o‘simpliklaring turi mavjud bo‘lib, shundan 112 tasi ro‘yxatga olingan. O‘simpliklaring 70 turi dorivor o‘simplik sifatida qayd etilib, qayta yetishtirilib, mahalliy dori vositasi sifatida foydalanimoqda.

ASOSIY QISM

Rayhon (bazilik) Rayhon yoqimli hid beruvchi o'simlik bo'lib, u talabchan emas va deyarli har bir uyda o'sadi. Dunyo bo'ylab bu o'simlik bazilik sifatida tanilgan, ammo O'zbekistonda bu rayhon deb nomlanadi. Rayhon tabiiy antibiotik bo'lib, isitma tushirish va bakteriyalarga qarshi kurashuvchi vosita sifatida ishlataladi. Qadim zamonlardan beri turli patogenlar keltirib chiqaradigan shamollashni davolashda foydalanilgan. Ushbu o'simlik tarkibidagi moddalar mushaklarning og'rig'ini kamaytiradi, yallig'lanishni oldini oladi, balg'amni bronxlar va o'pkadan olib tashlaydi va yo'tal va burunning oqishi bilan kurashadi. Bundan tashqari, rayhon parfyumeriya va efir moylarini ishlab chiqarishda faol qo'llaniladi. Rayhonning bir nechta turlari mavjud va ularning har biri o'ziga xos ta'mga ega: qizilmiya, limonli, chinnigulli, keng bargli.

Kashnich (koriander) Kashnich O'zbekistonda oson va erkin o'sadi. O'simlik mukammal tozalash xususiyatlariga ega. O'simlik tarkibidagi moddalar tanadan og'ir metallarni olib chiqish va zararli ta'sirini zararsizlantirishga yordam beradi. Kashnich urug'lari suvni tozalash uchun ham juda yaxshi qo'llaniladi. Buning uchun qisqa vaqt ichida suv idishga urug'lar solingan paketni tashlasangiz bo'ldi.

Arpabodiyon mevalari juda foydali. Uning tarkibida saratonga qarshi vosita – anetol, S vitamini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to'qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlaniradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi. Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko'rsatmalarga ega emas, shuning uchun u yosh bolalar va homilador ayollarga beriladigan ovqatga bemalol qo'shiladi.

Qadim zamonlardan beri turli patogenlar keltirib chiqaradigan shamollashni davolashda foydalanilgan. Ushbu o'simlik tarkibidagi moddalar mushaklarning og'rig'ini kamaytiradi, yallig'lanishni oldini oladi, balg'amni bronxlar va o'pkadan olib tashlaydi va yo'tal va burunning oqishi bilan kurashadi. Bundan tashqari, rayhon parfyumeriya va efir moylarini ishlab chiqarishda faol qo'llaniladi. Rayhonning bir nechta turlari mavjud va ularning har biri o'ziga xos ta'mga ega: qizilmiya, limonli,

chinnigulli, keng bargli.2. Kashnich (koriander)Kashnich O‘zbekistonda oson va erkin o‘sadi. O‘simlik mukammal tozalash xususiyatlariga ega. O‘simlik tarkibidagi moddalar tanadan og‘ir metallarni olib chiqish va zararli ta’sirini zararsizlantirishga yordam beradi. Kashnich urug‘lari suvni tozalash uchun ham juda yaxshi qo‘llaniladi. Buning uchun qisqa vaqt ichida suv idishga urug‘lar solingan paketni tashlasangiz bo‘ldi.3. ArpabodiyonArpabodiyon mevalari juda foydali. Uning tarkibida saratonga qarshi vosita – anetol, S vitaminini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to‘qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi. Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko‘rsatmalarga ega emas, shuning uchun u yosh bolalar va homilador ayollarga beriladigan ovqatga bemalol qo‘shiladi.4. YalpizYalpiz - bu efir moyining tarkibiy qismidir (mentol).

Yalpiz choyi oshqozon-ichak traktining buzilishlariga qarshi kurashda samarali vositadir. Yalpiz asab tizimini tinchlantiradi, og‘riqni yengillashtiradi va tanadan ortiqcha suvni olib tashlaydi.

Sebargani butun O‘zbekiston bo‘ylab topish mumkin, lekin eng muhim – namligi juda yuqori bo‘lgan joylarda u ko‘proq bo‘ladi. O‘zbekiston hududida bir vaqtning o‘zida bir necha turdagи sebarga o‘sadi, ularning har biri an‘anaviy tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Qizil sebargadan damlamalar tayyorlanadi va taloq kasalliklarida qo‘llaniladi. O‘tloq sebargasi bronxit, yo‘tal, kamqonlik, bezgak, astma uchun ishlatiladi. Oq sebargadan tonik, og‘riq qoldiruvchi va kuch beruvchi dorivor sifatida ishlatiladi.

XULOSA

Bizning yurtimiz dorivor o‘simliklarga boy. Mahalliy floraga mansub 4.3 mingdan ortiq o‘simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda. 2019 yilda 48 mln AQSh dollari qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o‘simliklardan olingan mahsulotlar eksport qilingan. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 aprelda qabul

qilingan “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori juda dolzarbdir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan klaster tizimi o‘zining hozirgi globallashuv davrida va bozor iqtisodiyoti talablari asosida, har bir imkoniyatdan to‘liq va samarali foydalanib jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berish agrar sektorda, jumladan paxtani yetishtirishdan to uni kompleks qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida yengil sanoat mahsulotlari, oziq ovqat sanoati mahsulotlari (paxta yog‘i va undan tayyorlanadigan mahsulotlar) hamda chorvachilik uchun ozuqa (har xil yemlar, premikslar) ishlab chiqarish imkoniyatlarini keskin oshirib, agrar sohada yangi tizim klaster tizimi yaratilganini e’tirof etish kerak.. O‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot institutiga dorivor o‘simliklarni yetishtirish, seleksiya va urug‘chilik sohasida tadqiqotlar o‘tkazish va agrokimyoviy kartogrammalarni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish, himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish ko‘p mutaxassislarni, jumladan botaniklar, farmakologlar, kimyogarlar, biokimyogarlar, texnologlar, manbashunoslari va boshqa mutaxassislarni hamkorlikda ishslashni talab qiladi. Mutaxassislarni so‘zlariga ko‘ra, o‘simlik dunyosini himoya qilish uchun uni har tomonlama – strukturaviy, funksional, taksonomik va evolyutsion bilish kerak

Dorivor o‘simliklarning genofondini saqlab qolish va ko‘paytirish usullaridan biri bu ularni madaniylashtirishdir. Introduksiya jarayoni (madaniylashtirish) juda murakkab, uzoq va ko‘plab omillarga bog‘liq, ya’ni: o‘simliklarning kelib chiqishi, ularning ekologik tabiat, tabiiy o‘sish joylarining iqlim va jug‘rofiy sharoiti va kirib borish maydoni va boshqalar. Tabiatda yovvoyi holda o‘sadigan shifobaxsh o‘simliklarni madaniylashtirish qimmatbaho yuqori mahsuldor turlari va navlarini olish maqsadida ko‘paytirishning keng qamrovini o‘z ichiga oladi.

O‘simliklarning tabiiy genofondini saqlab qolishning dolzarb vazifasi – bu ma'lum bir turning qaytarib bo‘lmaydigan darajada yo‘olib ketishining oldini olish uchun gen banklarini yaratish, ya’ni ma'lum sharoitlarda yovvoyi o‘simliklarning

urug'lik zaxiralarini saqlashdan iboratdir. Bu ham qarorda ko'rsatib o'tilgan. Gen banklarini yaratish urug'larni saqlashning barcha masalalarini puxta o'rghanishni nazarda tutadi.

Shifobaxsh o'simliklarning tabiiy zaxiralarini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanishning o'simliklarni tabiiy o'sish joyidan qayta ishlash joyiga, ya'ni fitopreparatlarni tayyerlash joyiga o'tkazish bosqichidir. Avvalo, o'simliklarni to'g'ri yig'ish va quritishga taaluqlidir. Xom – ashyoni yig'ishda nafaqat turlarning tarqalishi, zaxiralari va mahsuldorligi, balki o'rim-yig'imdan keyin o'simliklarning tabiiy holatini tiklash qobiliyatini ham bilish kerak. Ushbu xususiyatlar to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi va eng muhimi, yig'im-terim ishlarining yomon tashkil etilishi, ko'pincha bir necha yillik ishdan so'ng, avvalgi dorivor o'simliklar o'sadigan xududlar sezilarli yoki to'liq qurib ketishiga olib keladi. Bu muammolarni tizimli hal qilish qarorda o'z aksini topgan.

O'simlik preparatining sifati va samaradorligi ko'p jihatdan uning tarkibiy qismlariga bog'liq bo'lganligi sababli qayta ishlovchi kompaniyalar o'simlik materiallariga eng yuqori talabni qo'yadi. O'simlik materiallarining doimiy sifati boshqariladigan va standartizatsiyalashtirilgan o'sib boradigan sharoit bilan ta'minlanadi. Atrof muhit sharoiti, organik moddalarning yuqori konsentratsiyasi va qisqa transport yo'llari katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari analitik hisob-kitoblar bilan tekshiriladi va murakkab tizimni anglatadi. Ilmiy ishlarda asosiy e'tibor nafas olish kasalliklari, ginekologiya, urologiya va og'riqlarga qaratilgan. Chet el kompaniyalarining dorivor o'simliklaridan olingan mahsulotlari Respublikamizga import qilinadi, qabul qilingan qaror bu preparatlarni o'zimizda o'sadigan dorivor o'simliklardan olish imkoniyatini yaratadi. Misol tariqasida Bolgariyaning "Tribestan" (temirtikan o'simligi), Germaniyaning "Gelarium giperikum" (dalachoy o'simligi), Chexiyaning "Persen" (arslon quyruq o'simligi asosida), Rossiyaning "Ekstrakt valeriany" (asorun ildizi va ildizpoyalari) katta miqdorda dori shaklida kirib keladi. Bu shifobaxsh o'simliklar o'zimizda ham

o'sadi. Bularning ichidan faol moddalarni olish import hajmini kamaytirish imkonini beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkinlo'

ADABIYOTLAR

1. Агрохимия (Под ред. Б. А. Ягодина). М осква, 1982.
2. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений СССР. М осква, 1976.
3. Ataboyeva N . vaboshqalar. O'simlikshunoslik. Toshkent, 1995.
4. Вопросы агротехники возделывания лекарственных культур. Часть 1, Москва, 1987.
5. Мурдахаев Ю. М. Лекарственные культуры в Узбекистане, Ташкент, 2001.
6. Murdaxayev Yu.M. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. Toshkent, 1990.
7. Musayev B. S. « O'g'it qo'llash tizimi», Toshkent, 1998.
8. Musayev B. S. Agrokimyo. Toshkent, 2001
9. Справочник по лекарственным культурам. Воронеж, 1963.
10. ТТурова А.Д.Сапожникова Э. Н. Лекарственные растения СССР и их применение. М осква, 1982.
11. Xolmatov X.X. va boshqalar Ruscha-lotincha-o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati, Toshkent, 1992.
12. Xolmatov H.X., Ahmedov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism. - Toshkent.: Fan, 2007.
13. Xolmatov X. X., Habibov. O'zbekiston dorivor o'simliklari. Toshkent, 1971.
14. Ermatov A. Sug'oriladigan dehqonchilik. Toshkent, 1983.